IV-SHO‘BA
INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Saydullayeva.A.R.
*Farg`ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d.(*PhD)
Baydullayeva.M.M.
Farg’ona davlat universiteti
Pedagogika- psixologiya va san’atshunoslik fakulteti
Pedagogika yo’nalishi 1-kurs talabasi

INKLYUZIV TA’LIM TIZIMIDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu tezisda inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy faollikni shakllantirish imkoniyatlari va muammolari haqida so’z yuritiladi. Inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi bo’lgan o’quvchilar, balki barcha o’quvchilar uchun adolatli va samarali ta’lim olish imkonini beradi. Tadqiqot davomida o’qituvchilar malakasi, oilaviy hamkorlik, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy loyihalarning ahamiyati yoritilgan bo’lib, resurs yetishmovchiligi va jamiyatdagi qarashlar esa asosiy muammolar sifatida qayd etilgan.

Kalit so’zlar: inklyuziv ta’lim, ijtimoiy faollik, imkoniyatlar , muammolar, integratsiya, hamkorlik pedagogikasi, ota-ona, o’quvchi, ta’lim texnologiyalari.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir insonning teng huquqli ta’lim olish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim tizimi jahon miqyosida keng rivojlanmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning, xoh sog’lom, xoh nogironligi bo’lsin, yagona ta’lim muhitida o’qib, bilim olishiga imkon yaratadigan joydir.

O’zbekistonda ham oxirgi yillarda inklyuziv ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 13- avgustdagi “Nogironligi bo’lgan shaxslarni qo’llab- quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4412-son qarori hamda 2020-2025-yillarga mo’ljallangan inklyuziv ta’lim konsepsiyasi mamlakatimizda barcha uchun teng imkoniyat yaratish ustuvor vazifa ekanini ko’rsatadi.

Inklyuziv ta’limning eng muhim jihatlaridan biri o’quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdir, chunki, mazkur sifat shaxsning jamiyatda munosib o’rin egallashiga, jamoada samarali muloqot va hamkorlik qilishi hamda kelgusida mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy faollik – bu shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ijtimoiy mas’uliyatni o’z zimmasiga olishi va tashabbuskorlik ko’rsatishi jarayonidir. Olimlarning ta’kidlashicha, ijtimoiy faol shaxs –bu o’z fikrini ochiq ifoda eta oladigan, jamiyat manfaatiga hissa qo’shadigan va hamkorlikka tayyor bo’ladi. Shu bois, shaxsning bunday sifatlarini rivojlantirish ta’lim

jarayonida alohida e’tibor talab qiladi. Ushbu jarayonda inklyuziv ta’lim muhim yo’nalishlardan biri sifatida namoyon bo’lib, u nafaqat barcha o’quvchilarga teng imkoniyat yaratadi, balki, ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali jamiyatda faol, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxs tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda bo’lajak hayot faoliyatida ularning muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlaydi.

Bir tomondan qaralganda, inklyuziv ta’lim ijtimoiy faollikni shakllantirish uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Birinchidan, hamkorlik muhiti yaratiladi. Jamoaviy ishlarda sog’lom va nogironligi bor bo’lgan bolalar birgalikda qatnashib, bir-birini tushunishni o’rganadilar. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, buyuk alloma Ibn Sino kishilar o’rtasidagi munosabatlarda uyg’unlik va o’zaro tushunish mavjud bo’lishi jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligini qat’iy ta’kidlagan. “Inson o’zining shaxsiy ehtiyojlarini yakka- yolg’iz holda qondira olmaydi, u faqat boshqa odamlar bilan muloqotdagina ana shu maqsadlariga erisha olishi mumkin. Odamlar o’zaro muloqotlar va bir-biriga yordam berish orqaligina tashvishlardan xalos bo’ladilar. Agar odamzod hamma tashvishlardan qutilish uchun yakka o’zi harakat qilganida edi, u bunchalik og’ir yukni ko’tara olmagan bo’lar edi. Ma’lum bo’ladiki, odamlar o’rtasida adolat va qonun bilan o’rnatiladigan me’yorlar zarur ekan…”

Ikkinchidan, inklyuziv ta’lim shaxsiy qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Turli to’garaklar, sport va madaniy tadbirlar orqali har bir o’quvchi o’z iste’dodini namoyon etib, shaxsiy salohiyatini anglaydi va uni amaliy faoliyatda qo’llash imkoniyatiga ega bo’ladi. Ushbu jarayon muntazam o’qish, tajriba orttirish hamda ijodiy yondashuvni talab etadi. Qobiliyatlarning samarali rivoji esa nafaqat shaxsning o’z- o’zini kamol toptirishga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita hissa qo’shadi.

Uchinchidan, inklyuziv ta’lim ijtimoiy rollarni o’zlashtirishga imkon yaratadi. O’quvchilar sinfda turli vazifalarni bajarib, liderlik, mas’uliyat va tashabbuskorlikni o’zlashtiradilar. Ushbu jarayon o’quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirib, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

To’rtinchidan, texnologik imkoniyatlar ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli platformalar barcha bolalarga bilim olish va muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, onlayn darslar, audio va video materiallar nogironligi bo’lgan bolalarga ham qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o’quvchilarning mustaqil ta’lim olishi, ijodiy yondashuv va o’z qobiliyatlarini to’liq namoyon etishlari uchun samarali vosita hisoblanadi.

Biroq, boshqa tomondan qaraganda inklyuziv ta’lim jarayonida qator muammolar ham uchramoqda.

Jumladan, pedagoglarning tayyorgarligi yetarli emas. Ko’plab o’qituvchilar inklyuziv metodika haqida yetarli bilim va ko’nikmaga ega emasligi sababli, ta’lim jarayonida nogironligi bo’lgan o’quvchilar bilan samarali ishlashda muammolarni yuzaga keladi.

Shuningdek, psixologik to’siqlar ham mavjud. Ba’zi o’quvchilar va ota-onalar nogironligi bo’lgan bolalarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ta’lim muhitida bir qancha cheklovlar va ajralishlarga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim masala moddiy – texnik baza yetishmasligidir. Maxsus jihozlar, o’quv materiallari va zamonaviy sinf xonalari kamligi nogironligi bo’lgan bolalarning ta’lim jarayonida to’laqonli ishtirok etishiga to’sqinlik qiladi.

Nihoyat, jamiyatdagi stereotiplar ham inklyuziv ta’limga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Nogironligi bo’lgan bolalarga nisbatan ayrim salbiy qarashlar mavjud bo’lib, bu ularning ijtimoiy faolligini pasaytiradi va jamiyatga integratsiyalashuvini sekinlashtiradi.

O’zbekistonda so’nggi yillarda ushbu muammolarni hal etish borasida muayyan ishar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021- yildan boshlab ayrim umumta’lim maktablarida “inklyuziv sinflar” joriy etildi, vazirlik tomonidan pedagoglar uchun maxsus treninglar o’tkazilmoqda. Shu bilan birga, ota – onalar bilan ishlash bo’yicha ham yangi metodikalar ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Xalqaro tajribaga murojaat qilar ekanmiz, Finlandiya va Janubiy Koreya singari mamlakatlarda inklyuziv ta’lim tizimini muvaffaqiyatli yo’lga qo’yilganini ko’rishimiz mumkin. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo’llanmalar ham dunyo miqyosida keng qo’llanilib, inklyuziv ta’limni joriy etishda muhim manba hisoblanadi. Quyida Finlandiya va Janubiy Koreyada inklyuziv ta’lim joriy etilishi bo’yicha manbaga asoslangan ma’lumotlar keltirilgan.

Finlandiyada inklyuziv yondashuvning asosiy jihatlaridan biri hamkorlikdagi o’qituvchilardir (co-teaching). Ya’ni, umumiy darslarda umumiy va maxsus ta’lim o’qituvchilari birgalikda ishlaydi. Bu esa talabalarni guruhlarga ajratmasdan individual darajada qo’llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Shu bilan birga, Finlandiya Konstitutsiyasi ta’limda hamma uchun tenglik prinsipini kafolatlab, nogironlik yoki boshqa shaxsiy holatlarga ko’ra, hech kimga nisbatan cheklov bo’lmasligini aniq belgilaydi. Bundan tashqari, Finlandiya maktablarida “KiVa anti-bully” dasturi amalda bo’lib, u bolalar orasida zo’ravonlikni kamaytirishga, mehr-oqibat va inklyuziya ruhini shakllantirishga yo’naltirilgan.

Janubiy Koreyada esa ta’limda inklyuziya ko’lamlari yanada keng. Masalan, 2022- yildagi rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, maxsus ta’limga loyiq bo’lgan o’quvchilarning 73% qismi qisman (56%) yoki (17%) inklyuziv muhitda ta’lim olgan va bu jamiyatda inklyuziv jarayonlarning tobora kengayib borayotganini ko’rsatadi.

Shuningdek, Koreyada milliy darsliklarni moslashtirish jarayoni - 2008 – yildan amalda bo’lgan Special education Act for Individuals With Disabilities and Others qonuniga binoan, maktab darsliklarini nogironligi bo’lgan o’quvchilarga moslashtirilgan holda ishlab chiqish uchun to’rt bosqichli usul qo’llanadi: ehtiyojni aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, materiallarni ishlab chiqarish va qo’llashni monitoringdan o’tkazish.

Bundan tashqari, Koreyada qo’llab – quvvatlash tarmoqlari mavjud bo’lib, bu orqali inklyuziv ta’lim xalqaro mezonlarga mos tarzda ko’plab to’g’ri sharoitlarda amalga oshirilyapti: inson resurslari, ijtimoiy muhit, fizik muhit, o’quv dasturi va moliyaviy texnik qo’llab – quvvatlash kabi asosiy besh omil sifatida belgilanadi.

Ushbu ilg’or tajribalarni O’zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali mavjud muammolarni samarali hal etish mumkin.

Asosan:

Pedagoglarning malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etish;

Ota – onalar bilan muntazam seminar o’tkazib, ularning qarashlarini ijobiy tomonga yo’naltirish;

Inklyuziv muhit uchun moddiy texnik bazani mustahkamlash;

Jamiyatda inklyuziv ta’limning ijobiy ahamiyatini targ’ib qilish;

Xalqaro tajribalardan foydalanish orqali ham maqsadlarga erishish mumkin.

Shunday ekan, inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy faollikni shakllantirish o’quvchilarning shaxsiy rivoji , jamiyatga moslashuvi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim omil bo’lib, bu jarayon samarali amalga oshishi uchun pedagoglarning bilim va ko’nikmalari oshirilishi, ota-onalar bilan hamkorlik kuchaytirilishi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanilishi alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4412-son qarori. – 2019-yil 13-avgust.

2. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. - 2020-yil

3. “2020-2025 –yillarga mo’ljallangan Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi”. Toshkent.

4. Hoshimov K, Nishonova S, Inomova M, Hasanov R. Pedagogika tarixi. –T.: O’qituvchi, 1996. – 488 b.

5. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2017.

6. UNICEF. Education for All: Inclusive Practices. – New York, 2020.